Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning maqsadi davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida mehnatga layoqatli yoshdan katta aholi uchun xizmatlar bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, xizmatlarni ehtiyojga moslashtirish, xususiy provayderlarni natijadorlik va sifat mezonlari asosida jalb etish, vaucher asosida moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda xizmatlar qamrovi va sifati monitoring qilish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mehnatga layoqatli yoshdan katta aholi uchun xizmatlar bozorini rivojlantirish bugungi bosqichda ijtimoiy yordam yoki davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan xizmatlar doirasida hal etiladigan masala emas. Aholining qarish jarayoni, keksa yoshdagi fuqarolarning tibbiy, ijtimoiy, maishiy, reabilitatsion, raqamli, transport, maslahat va psixologik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi mazkur sohada davlat, xususiy sektor, mahalla, nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy tadbirkorlar va raqamli xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida yangi hamkorlik modelini shakllantirishni talab etadi. Aynan shu nuqtayi nazardan davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida keksalar uchun xizmatlar bozorini rivojlantirish mintaqaviy xizmatlar iqtisodiyotining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni 2019-yil 10-mayda qabul qilingan bo'lib, u davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishga qaratilgan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlari uchun huquqiy asos yaratadi¹. Mazkur huquqiy asos keksa yoshdagi aholiga xizmat ko'rsatish sohasida ham muhim ahamiyatga ega, chunki bu yo'nalishda davlatning ijtimoiy kafolatlari, xususiy sektorning investitsiyaviy faolligi va mahalla institutining ehtiyojni aniqlashdagi imkoniyatlari birlashtirilsa, xizmatlar sifati va qamrovi sezilarli darajada oshadi. O'zbekiston — 2030 strategiyasida professional ijtimoiy xizmatlar tizimini tubdan takomillashtirish, barcha tuman va shaharlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini tashkil etish hamda muhtoj qatlamlarni ijtimoiy himoya tizimi bilan to'liq qamrab olish vazifalari belgilangan. Demak, davlat-xususiy sheriklik keksalarga xizmat ko'rsatishda davlat mas'uliyatini kamaytirish uni samarali ijro etish uchun xususiy va ijtimoiy resurslarni oqilona safarbar qilish mexanizmi sifatida talqin qilinishi kerak.

Qashqadaryo viloyati sharoitida ushbu masala alohida dolzarblilik kasb etadi. Viloyatda aholi soni yuqori, qishloq hududlar ulushi sezilarli, tumanlar o'rtasida infratuzilmaviy farqlar mavjud. Mehnatga layoqatli yoshdan katta aholining xizmatlarga ehtiyoji esa yagona shaklda emas: ayrim keksalar uyda parvarish va maishiy yordamga muhtoj bo'lsa, boshqalari tibbiy reabilitatsiya, dori-darmon, sanatoriy, raqamli xizmatlardan foydalanish, transport, huquqiy maslahat, psixologik ko'mak yoki ijtimoiy faollik markazlariga ehtiyoj sezadi. Shunday sharoitda davlat muassasalari tarmog'ini kengaytirish orqali barcha ehtiyojlarni to'liq qondirish qiyin. Aksincha, xizmatlar bozorini davlat tomonidan tartibga solinadigan, ijtimoiy yo'naltirilgan va xususiy tashabbus bilan boyitilgan aralash model asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Davlat-xususiy sheriklikning iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, davlat ijtimoiy kafolat, tartibga solish, subsidiya, vaucher, ijtimoiy buyurtma va sifat nazoratini ta'minlaydi; xususiy sektor esa xizmat ko'rsatish quvvati, investitsiya, boshqaruv tajribasi, texnologiya, moslashuvchan xizmat turlari va mijozga yo'naltirilgan yondashuvni olib kiradi. Mahalla va "Inson" markazlari ehtiyojni aniqlash, xizmatga yo'naltirish va natijani kuzatishda muhim vositachi bo'lib xizmat qiladi. Nodavlat tashkilotlar va volontyorlar esa psixologik, ma'naviy, huquqiy va ijtimoiy faollik yo'nalishlarida xizmatlar sifati oshirishi mumkin (1-jadval).

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O'RBQ-537-son "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni.



1-jadval.

PPP (davlat xususiy sheriklik) samaradorligini baholash metodikasi²

№	Ko'rsatkich	Belgilanishi	Baholash maqsadi	Samaradorlik mezon
1	Investitsiyalar qaytimi	ROI	Moliyaviy samaradorlik	ROI yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq
2	Sof joriy qiymat	NPV	Investitsiyaning iqtisodiy samaradorligi	NPV > 0
3	Ichki daromadlilik me'yori	IRR	Loyihaning daromadliliigi	IRR > diskont stavkasi
4	Xarajatlar va foydalar tahlili	CBA	Xarajat va natija nisbati	Benefit/Cost > 1
5	Investitsiyalarning ijtimoiy qaytimi	SROI	Ijtimoiy samaradorlik	SROI > 1

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tamoyillari asosida mehnatga layoqatli yoshdan katta aholi uchun xizmatlar bozorini rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalarni baholashda moliyaviy va ijtimoiy ko'rsatkichlarning o'zaro kompleks mutanosibligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususiy sarmoyadorlarni ushbu sohaga jalb qilishda loyihaning tijorat jozibadorligi investitsiyalar qaytimi (ROI) hamda ichki daromadlilik me'yori (IRR) orqali asoslanib, daromadlilik darajasi joriy diskont stavkasidan kafolatlangan holda yuqori bo'lishi talab etiladi. Shu bilan bir qatorda, kapital qo'yilmalarning mutlaq iqtisodiy samaradorligini ta'minlash uchun sof joriy qiymat (NPV) noldan katta bo'lishi shart. Biroq, mehnat yoshidan katta aholi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan DXSh loyihalarining bosh xususiyati ularning kuchli ijtimoiy xarakterga ega ekanligidadir. Shu sababli, xarajatlar va foydalar tahlili (CBA) hamda investitsiyalarning ijtimoiy qaytimi (SROI) eng ustuvor baholash mezonlariga aylanadi. Xususan, keksalar uchun tibbiy-ijtimoiy, reabilitatsiya yoki maxsus raqamli xizmatlarni tashkil etish kabi loyihalarda ko'rsatkichi qat'iy talab etilib, bu xususiy investor kiritgan har bir sarmoya nafaqat tijorat jihatdan o'zini oqlashini, balki qariyalar hayot sifatini yaxshilash va davlat byudjetidagi ijtimoiy yuklamani yengillashtirish orqali makroiqtisodiy foyda keltirishini anglatadi. Ushbu mezonlarning yaxlit qamrab olinishi mintaqada "kumush iqtisodiyot" xizmatlar bozorini shakllantirish va DXSh loyihalarini ilmiy jihatdan asoslash uchun mustahkam baza bo'lib xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval.

Mehnatga layoqatli yoshdan katta aholi uchun xizmatlar bozorining institutsional tuzilmasi

№	Xizmat turi	Davlat sektori	Xususiy sektor	NNT (Nodavlat notijorat tashkilotlari)	Davlat-xususiy sheriklik (DXSh)	Rivojlanish darajasi
1	Tibbiy xizmatlar	Davlat poliklinikalari va ko'p tarmoqli shifoxonalar (kafolatlangan paket)	Xususiy klinikalar, xususiy amaliyot shifokorlari, laboratoriyalar	Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlarining grant loyihalari	Gemodializ, onkologiya va diagnostika markazlaridagi qo'shma loyihalar	O'rta-yuqori
2	Reabilitatsiya	Davlat sanatoriy va kurortlari, tibbiy-ijtimoiy markazlar	Xususiy sog'lomlashtirish va fizioterapiya markazlari	Nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatlari dasturlari	Konsessiya asosidagi tibbiy reabilitatsiya maskanlari	O'rta
3	Ijtimoiy xizmatlar	Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimi («Inson» markazlari)	Xususiy pansionatlar va pullik qariyalar uylari (kam tarmoqli)	«Nuroni» jamg'armasi, «Mahalla» fondi, Qizil Yarim Oy jamiyati	Ijtimoiy ta'sir obligatsiyalari (SIB) va ijtimoiy buyurtmalar	O'rta
4	Uyda xizmat ko'rsatish	Davlat tibbiy-ijtimoiy patronaj xizmati xodimlari	Pullik uy hamshiralari va maxsus enagalar xizmati agentliklari	Mahalliy volontyorlik guruhlar va xayriya tashkilotlari ko'magi	Uyda parvarishlash xizmatlarini xususiy sektorga outsorsing qilish	Past-o'rta

2 Muallif tomonidan taklif etilgan



5	Transport	Imtiyozli va bepul yo'l haqi huquqini beruvchi shahar jamoat transporti	Tijorat yo'lovchi tashish va maxsus taksi xizmatlari (InDrive, Yandex)	Maxsus xayriya transport xizmatlari va aksiyalar	Ijtimoiy yo'nalishlarni va yo'l haqini davlat tomonidan subsidiyalash	O'rta
6	Kommunal xizmatlar	Davlat kommunal tarmoqlari (suv, elektr, gaz ta'minoti)	Xususiy boshqaruv kompaniyalari (sobiq XShJlar o'rnida)	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tashabbuslari	Issiqlik ta'minoti va maishiy chiqindilarni boshqarishdagi DXSh	O'rta-yuqori
7	Madaniy xizmatlar	Madaniyat markazlari, davlat teatrlari, muzey va kutubxonalar	Keksalar turizmiga ixtisoslashgan xususiy turoperatorlar	Keksalar klublari, faxriylar ishtirokidagi madaniy tadbirlar	Madaniyat va istirohat bog'larini ishonchli boshqaruvga berish	Past-o'rta
8	Raqamli xizmatlar	Elektron hukumat (my.gov.uz), interaktiv davlat pensiya tizimi	Mobil banking (Click, Payme), xususiy telemeditsina ilovalari	Keksalar uchun raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha bepul kurslar	Elektron sog'liqni saqlash va ijtimoiy bazalarni integratsiya qilish	Jadallashmoqda

Ushbu institutsional tuzilma shuni ko'rsatadiki, mehnatga layoqatli yoshdan katta aholi uchun xizmatlar bozorida davlat sektori hamon asosiy ijtimoiy kafillik funksiyasini bajarmoqda. Shu bilan birga, tibbiyot, kommunal va raqamli xizmatlar sohalarida xususiy sektorning ulushi jadal o'sib borayotgani sog'lom raqobatni shakllantirmoqda. Biroq, uyda xizmat ko'rsatish, reabilitatsiya va madaniy xizmatlar kabi nozik ijtimoiy yo'nalishlarda rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lib, aynan shu tarmoqlarda DXSh mexanizmlarini (outsourcing, ijtimoiy buyurtma, konsessiya) va Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) salohiyatini kengaytirish "kumush iqtisodiyot" ekotizimini to'laqonli ishlashi uchun hal qiluvchi zaxira hisoblanadi.

Keksalar uchun xizmatlar bozorini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirishda birinchi navbatda xizmatlarning iqtisodiy tasnifini aniq belgilash kerak. Chunki barcha xizmatlar bir xil darajada tijoratlashishi mumkin emas. Masalan, yolg'iz, nogironligi bo'lgan yoki o'zgalar parvarishiga muhtoj keksalar uchun asosiy ijtimoiy xizmatlar davlat kafolati ostida bo'lishi lozim. Biroq uyda maishiy yordam, kunduzgi parvarish, reabilitatsiya, sog'lomlashtirish, raqamli savodxonlik, transport, maslahat, klub va faol qarish xizmatlari xususiy sektor, nodavlat tashkilotlar va ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari ishtirokida rivojlantirilishi mumkin. Bunda davlat "xizmatni o'zi ko'rsatuvchi" "xizmat bozorini tartibga soluvchi, moliyalashtiruvchi, sifatni nazorat qiluvchi va ehtiyojmand shaxs manfaatini himoya qiluvchi" subyekt sifatida maydonga chiqadi.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi xizmatlar bozorining asosiy ustunligi shundaki, u xizmatlar taklifini kengaytiradi. Masalan, davlat muassasasi bir hududda cheklangan turdagi xizmatlarni ko'rsatishi mumkin. Xususiy operatorlar esa uyga borib yordam berish, kunduzgi xizmat ko'rsatish, reabilitatsiya, sog'lomlashtirish, raqamli ko'mak, transport va maslahat xizmatlarini alohida paket sifatida taklif etishi mumkin. Lekin bunday bozor ijtimoiy nazoratsiz qoldirilsa, xizmatlar narxi oshib ketishi, eng ko'p yordamga muhtoj keksalar xizmatdan chetda qolishi yoki xususiy provayderlar foydali xizmat turlariga qiziqib, og'ir toifadagi keksalarga xizmat ko'rsatmasligi mumkin. Shuning uchun davlat-xususiy sheriklik modelining asosiy sharti ijtimoiy adolat, narxning maqbulligi, xizmat sifati va ehtiyojmandlik mezonlarining aniq belgilanishidir.

Qashqadaryo viloyatida 2025-yil yanvar-sentabr oylarida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali 121 turdagi xizmatlarga jami 455 539 ta ariza kiritilgani, shundan 326 110 tasiga xizmat ko'rsatilgani, 46 580 tasi jarayonda ekani va 82 427 tasi rad etilgani ijtimoiy xizmatlarga talab nihoyatda yuqori ekanini ko'rsatadi. Arizalarning 398 687 tasi ijtimoiy xodimlar tomonidan kiritilgani xizmatlarning mahalla va ijtimoiy xodimlar orqali aholiga yaqinlashayotganini bildiradi. Mazkur raqamlar davlat-xususiy sheriklik uchun juda muhim iqtisodiy signal beradi: talab mavjud, ehtiyoj aniqlanmoqda, xizmatlar ro'yxati keng, ammo ushbu talabni davlat muassasalari hisobidan qondirish katta moliyaviy yuklama tug'diradi. Demak, xizmatlar bozoriga akkreditatsiyadan o'tgan xususiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchilarni jalb qilish zarur.

Davlat-xususiy sheriklik asosida keksalar uchun xizmatlar bozorini rivojlantirishning birinchi yo'li — vaucher mexanizmini kengaytirishdir. Vaucher mexanizmi shundan iboratki, davlat ehtiyojmand keksa



shaxsga muayyan xizmatni olish huquqini beradi, xizmatni esa akkreditatsiyadan o'tgan xususiy yoki nodavlat tashkilot ko'rsatadi. Bu yondashuvda mablag' bevosita muassasani saqlashga emas, xizmat oluvchi shaxsning ehtiyojini qondirishga yo'naltiriladi. Natijada "pul muassasaga emas, xizmat oluvchining ehtiyojiga ergashadi" degan tamoyil shakllanadi. Bu iqtisodiy jihatdan samarali, chunki davlat real ko'rsatilgan xizmat uchun to'laydi, xizmat ko'rsatuvchi esa sifatli xizmat ko'rsatishga manfaatdor bo'ladi.

2025-yilda Qashqadaryo viloyatida o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga xizmat ko'rsatish doirasida 5 turdagi xizmat bo'yicha 1 994 nafar fuqaroga vaucher shakllantirilgani, 450 nafar tadbirkor my.ihma.uz orqali ro'yxatdan o'tib xizmat ko'rsatgani qayd etilgan. Xizmatlar tarkibida uy sharoitida ijtimoiy-maishiy yordam 826 nafar, uy sharoitida qarab turish 777 nafar, kunduzgi qatnov asosida qarab turish 233 nafar, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya 148 nafar, shaxsiy yordamchi xizmati esa 10 nafar foydalanuvchini qamrab olgan³. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi bosqichda eng katta ehtiyoj uy sharoitida ko'rsatiladigan xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Uy sharoitidagi ijtimoiy-maishiy yordam va uy sharoitida qarab turish xizmatlari jami 1 603 nafarni tashkil etib, umumiy vaucher xizmatlarining 80,4 foiziga teng. Bu esa davlat-xususiy sheriklik asosida birinchi navbatda uyda xizmat ko'rsatish bozorini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida keksalar uchun xizmatlar bozorini rivojlantirishning ikkinchi yo'li — ijtimoiy buyurtma tizimini kengaytirishdir. Ijtimoiy buyurtma orqali davlat muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatni xususiy yoki nodavlat tashkilotdan xarid qiladi. Masalan, yolg'iz keksalar uchun haftalik uyga borib holidan xabar olish, raqamli xizmatlardan foydalanishga o'rgatish, psixologik maslahat, tibbiy ko'rikka olib borish, kunduzgi parvarish, reabilitatsiya mashg'ulotlari yoki "Silver Co-working and Activity Center"da ijtimoiy faollik dasturlarini tashkil etish ijtimoiy buyurtma asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu modelda davlat xizmat turini, sifat talablarini va natija ko'rsatkichlarini belgilaydi; xizmat ko'rsatuvchi esa belgilangan me'yor asosida xizmat ko'rsatadi va natijasi bo'yicha hisobot beradi.

Uchinchi yo'l — subsidiyalangan xizmat paketlarini joriy etishdir. Mehnatga layoqatli yoshdan katta aholining barchasi bir xil darajada ehtiyojmand emas. Ayrim keksalar to'liq bepul xizmatga muhtoj bo'lsa, ayrimlari xizmat narxining bir qismini to'lash imkoniyatiga ega. Shu sababli xizmatlarni uch darajali moliyalashtirish modeli asosida tashkil etish maqsadga muvofiq: birinchi daraja — to'liq davlat tomonidan kafolatlangan bepul xizmatlar; ikkinchi daraja — qisman subsidiyalangan xizmatlar; uchinchi daraja — to'liq pullik, lekin sifat nazorati va standartlarga bo'ysunuvchi xizmatlar. Bunday model xizmatlar bozorini kengaytiradi, lekin ijtimoiy adolatni saqlab qoladi.

To'rtinchi yo'l — akkreditatsiya va sifat reytingi tizimini joriy etishdir. Davlat-xususiy sheriklik sharoitida xizmatlar bozoriga xususiy subyektlar kirishi bilan sifat nazorati masalasi keskin ahamiyat kasb etadi. Har qanday tadbirkor keksalarga xizmat ko'rsatishi mumkin emas; buning uchun malaka, axloqiy yondashuv, xavfsizlik, xizmat standarti, narx shaffofligi va foydalanuvchi huquqlarini himoya qilish mexanizmi bo'lishi kerak. Shu sababli Qashqadaryo viloyatida keksalarga xizmat ko'rsatadigan xususiy provayderlarni akkreditatsiya qilish, xizmat sifatini baholash va foydalanuvchilar fikri asosida reyting yuritish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchi yo'l — "Silver Service Center" va "Silver Co-working Activity Center" kabi ko'p vazifali markazlarni davlat-xususiy-ijtimoiy sheriklik asosida tashkil etishdir. Bunday markazlar dam olish yoki muloqot maskani keksalar uchun raqamli ko'mak, maslahat, mikrobandlik, sog'lomlashtirish, yengil reabilitatsiya, huquqiy yordam, mentorlik, klub faoliyati va avlodlararo tajriba almashinuvi xizmatlarini birlashtirgan markaz bo'lishi mumkin. Markazni tashkil etishda hokimlik yoki mahalla bino ajratadi, xususiy operator boshqaradi, "Inson" markazi ehtiyojmand va faol keksalarni yo'naltiradi, bank yoki aloqa operatori texnik ko'mak beradi, oliy ta'lim muassasasi esa talaba-volontyorlar va mutaxassislar orqali treninglar o'tkazadi.

Oltinchi yo'l — uyda xizmat ko'rsatish bozorini shakllantirishdir. Qashqadaryo viloyatidagi 2025-yil vaucher ma'lumotlari uy sharoitidagi xizmatlar eng katta ehtiyojga ega ekanini ko'rsatmoqda⁴. Uyda xizmat ko'rsatish bozori quyidagi xizmatlarni o'z ichiga olishi mumkin: kundalik maishiy yordam, ovqat tayyorlash yoki yetkazish, dori-darmon xaridida ko'mak, tibbiy ko'rikka kuzatib borish, uyni tozalash, kommunal to'lovlarni amalga oshirishga yordam, kichik ta'mirlash, gigiyena yordami, hamshira tashrifi, reabilitatsiya mashqlari, psixologik suhbat va raqamli xizmatlardan foydalanishga ko'mak. Bu xizmatlar davlat buyurtmasi, vaucher, oilaning qisman to'lovi yoki xususiy to'lov asosida ko'rsatilishi mumkin.

Yettinchi yo'l — tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlarini kengaytirishdir. Vaucher tarkibida tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya xizmatlaridan foydalanganlar 148 nafar bo'lib, umumiy vaucher xizmatlarining 7,4 foizini tashkil etgan⁵. Bu ulush juda past. Keksalar uchun reabilitatsiya xizmatlari insult, yurak-qon tomir kasalliklari, bo'g'im muammolari, jarrohlikdan keyingi tiklanish, harakatlanish qobiliyatini saqlash va mustaqil yashash imkoniyatini

3 Qashqadaryo viloyati hokimligi. "Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy himoya yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida", 2025-yil yanvar-sentabr yakunlari bo'yicha rasmiy axborot

4 Qashqadaryo viloyati hokimligi. "Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy himoya yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida", 2025-yil yanvar-sentabr yakunlari bo'yicha rasmiy axborot

5 O'sha manba



uzaytirishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik asosida tuman markazlarida kichik reabilitatsiya xonalari, kunduzgi tiklanish markazlari va uyda reabilitatsiya xizmatlari tashkil etilishi kerak.

Sakkizinchi yo'l — keksalar uchun transport va yetib borish xizmatlarini rivojlantirishdir. Xizmatlar bozori xizmat mavjudligi bilan unga yetib borish imkoniyati bilan ham belgilanadi. Kexsa yoshdagi shaxs poliklinika, bank, davlat xizmatlari markazi, "Inson" markazi yoki sanatoriya yetib bora olmasa, xizmat sifati past bo'ladi. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik asosida "ijtimoiy transport", "keksalar taksisi", "tibbiy ko'rikka olib borish xizmati" yoki "mahalladan markazga qatnov kuni" kabi xizmatlarni yo'lga qo'yish zarur. Bunda xususiy transport operatorlari bilan shartnoma tuzilib, ehtiyojmand keksalar uchun subsidiya yoki vaucher berilishi mumkin.

To'qqizinchi yo'l — raqamli platforma asosida xizmatlar bozorini muvofiqlashtirishdir. Davlat-xususiy sheriklik samarali ishlashi uchun barcha ishtirokchilar yagona axborot maydonida bog'lanishi kerak. Ehtiyojni mahalla aniqlaydi, "Inson" markazi ijtimoiy ish ochadi, xizmat turi tanlanadi, akkreditatsiyadan o'tgan provayder xizmat ko'rsatadi, natija elektron qayd etiladi, foydalanuvchi qoniqishi baholanadi va to'lov xizmat natijasi asosida amalga oshiriladi. Bunday tizim shaffoflikni ta'minlaydi va davlat mablag'larining real xizmatga bog'lanishini kuchaytiradi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmining samaradorligini baholash uchun quyidagi mualliflik ko'rsatkichini taklif etish mumkin:

$$DXSHS=0,20Q+0,15M+0,15I+0,15N+0,15A+0,10R+0,10F \quad (1)$$

Bu yerda:

DXSHS — davlat-xususiy sheriklik asosidagi xizmatlar samaradorligi indeksi;

Q — xizmatlar qamrovi;

M — manzillilik;

I — xususiy investitsiya va xizmat ko'rsatuvchilar ishtiroki;

N — natijadorlik;

A — iqtisodiy tejamkorlik;

R — raqobat va tanlov imkoniyati;

F — foydalanuvchi qoniqishi.

Ushbu indeks 0 dan 1 gacha baholanadi. 0,80 dan yuqori qiymat yuqori samaradorlikni, 0,60–0,79 o'rta-yuqori samaradorlikni, 0,40–0,59 o'rta darajani, 0,40 dan past natija esa mexanizmni qayta ko'rib chiqish zarurligini bildiradi.

Mazkur indeksning ilmiy afzalligi shundaki, u davlat-xususiy sheriklikni shartnoma soni yoki ajratilgan mablag' bilan xizmat natijasi bilan baholaydi. Masalan, xususiy provayderlar soni ko'payishi yaxshi, ammo xizmat narxi yuqori bo'lsa yoki ehtiyojmand keksalar xizmatdan foydalana olmasa, samaradorlik past bo'ladi. Aksincha, xizmat arzon, uyga yaqin, sifatli va foydalanuvchi qoniqishi yuqori bo'lsa, DXSh modeli haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy samara beradi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida xizmatlar bozorini rivojlantirishda moliyalashtirish manbalari aralash bo'lishi zarur. Birinchi manba — davlat budjeti va ijtimoiy himoya jamg'armalari. Bu manbalar ehtiyojmand keksalar uchun kafolatlangan xizmatlarni moliyalashtiradi. Ikkinchi manba — vaucher va ijtimoiy buyurtma. Bu xizmat xaridini natijaga bog'laydi. Uchinchi manba — xususiy investitsiya. Bu reabilitatsiya markazi, kunduzgi parvarish markazi, transport xizmati, raqamli platforma yoki "Silver Center" kabi loyihalarga yo'naltiriladi. To'rtinchi manba — homiylik va korporativ ijtimoiy mas'uliyat mablag'lari. Banklar, aloqa operatorlari, yirik korxonalar keksalar uchun raqamli savodxonlik, texnika, internet, transport yoki sog'lomlashtirish tadbirlarini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Beshinchi manba — foydalanuvchilarning qisman to'lovi. Bu to'lov qobiliyatiga ega keksalar uchun qo'llanadi va ehtiyojmandlarga nisbatan majburiy bo'lmisligi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qashqadaryo viloyatida xizmatlar bozorini rivojlantirishda xizmat turlari bo'yicha bosqichma-bosqich yondashuv qo'llanishi lozim. Birinchi bosqichda uyda ijtimoiy-maishiy yordam, uyda qarab turish, dori-darmon yetkazish, tibbiy ko'rikka kuzatib borish va raqamli ariza topshirishda yordam xizmatlari kengaytiriladi. Ikkinchi bosqichda tuman markazlarida kunduzgi parvarish, reabilitatsiya, sog'lomlashtirish, raqamli savodxonlik va maslahat markazlari tashkil etiladi. Uchinchi bosqichda "Silver Co-working Activity Center" modeli joriy qilinib, keksalarning ijtimoiy faolligi, mikrobandligi, mentorligi va avlodlararo tajriba almashinuvi rivojlantiriladi. To'rtinchi bosqichda xizmatlar sifati reyting asosida baholanadi.

Davlat-xususiy sheriklik modelida tavakkalchiliklarni to'g'ri taqsimlash ham muhimdir. Talab tavakkalchiligi davlat va xususiy sektor o'rtasida bo'linadi: davlat ijtimoiy buyurtma va vaucher orqali minimal talabni kafolatlaydi,



xususi sektor esa qo'shimcha pullik xizmatlar orqali bozorni kengaytiradi. Moliyaviy tavakkalchilikda davlat subsidiya va imtiyozli kreditlar beradi, xususi sektor esa xarajatlarni samarali boshqaradi. Sifat tavakkalchiligi davlatning standartlari, akkreditatsiya va reyting tizimi orqali nazorat qilinadi. Ijtimoiy tavakkalchilik — ya'ni ehtiyojmand keksalarning chetda qolishi xavfi — mahalla, "Inson" markazi va ijtimoiy xodimlar orqali kamaytiriladi.

Qashqadaryo viloyatida 2025-yilda xizmatlar sohasining umumiy hajmi 41 670,7 mlrd so'mga yetgani, sog'liqni saqlash xizmatlari esa 612,8 mlrd so'mni tashkil etgani hududda xizmatlar iqtisodiyoti kengayayotganini ko'rsatadi⁶. Bu iqtisodiy muhit keksalar uchun alohida xizmatlar bozorini rivojlantirishga asos bo'la oladi. Biroq bu bozor oddiy tijorat bozori sifatida emas, ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan tartibga solinadigan bozor sifatida shakllanishi kerak. Chunki keksa yoshdagi aholining katta qismi pensiya va nafaqaga tayanadi, ularning to'lov qobiliyati cheklangan, xizmat ehtiyoji esa doimiy.

Davlat-xususi sheriklik asosida xizmatlar bozorini rivojlantirishning ijtimoiy natijalari quyidagilarda namoyon bo'ladi: keksalarning xizmatdan foydalanish imkoniyati kengayadi, yolg'iz va parvarishga muhtoj shaxslar uyda yordam oladi, reabilitatsiya va sog'lomlashtirish xizmatlari qamrovi oshadi, tibbiyot muassasalariga ortiqcha yuklama kamayadi, oilalarning parvarish yuki yengillashadi, keksalarning ijtimoiy yakkalanishi kamayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, xususi sektor ijtimoiy xizmatlar bozoriga kiradi, mahalla, "Inson" markazi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida natijaga yo'naltirilgan hamkorlik shakllanadi.

Iqtisodiy natijalar esa quyidagilar bilan ifodalanadi: davlat budjeti mablag'lari real xizmat natijasiga bog'lanadi; xizmat ko'rsatishdagi takrorlanishlar kamayadi; ehtiyojmandlikni aniqlash aniqlashadi; xususi investitsiya jalb qilinadi; kichik va o'rta xizmat ko'rsatish korxonalari rivojlanadi; mahalliy bandlik kengayadi; uyda xizmat ko'rsatish va reabilitatsiya orqali qimmat statsionar davolanish ehtiyoji kamayadi; xizmatlar bozorining yangi "keksalar iqtisodiyoti" segmenti shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Roehrich J.K., Lewis M.A., George G. Are public-private partnerships a healthy option? A systematic literature review // *Social Science & Medicine*. – 2014. – Vol. 113. – P. 110–119. – DOI: 10.1016/j.socscimed.2014.03.037.
2. OECD. Public and Private Sector Relationships in Long-term Care and Healthcare Insurance. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 32 p. – DOI: 10.1787/a460ce0b-en.
3. OECD, World Health Organization. Pricing Long-term Care for Older Persons. – Geneva: World Health Organization; Paris: OECD Publishing, 2021. – 374 p. – DOI: 10.1787/a25246a6-en.
4. World Health Organization. Framework for Countries to Achieve an Integrated Continuum of Long-term Care. – Geneva: World Health Organization, 2021. – 54 p. – ISBN 978-92-4-003884-4.
5. World Health Organization Regional Office for the Western Pacific. Public-Private Mix for Continuity of Care for Older Persons: Study of Select Countries in the Asia Pacific Region. – Manila: WHO Regional Office for the Western Pacific, 2024.
6. Wang K., Ke Y., Sankaran S. Social sustainability of aged care public-private partnership projects in China: Critical practices and realisation paths // *Journal of Cleaner Production*. – 2023. – Vol. 422. – Art. 138644. – DOI: 10.1016/j.jclepro.2023.138644.
7. Khamrayeva S.N., Ochilova N.A. Development of the Services Sector for the Elderly Working-Age Population // *Innovatsion Iqtisodiyot Scientific-Practical Electronic Journal*. – 2025. – Vol. 3, No. 2. – P. 357–360.
8. Ochilova N. Theoretical and Legal Basis of Providing Services to the Working Age Population // *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*. – 2025. – Vol. 12, Issue 06. – P. 351–355.
9. Ochilova N. Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida mehnatga layoqatli yoshdan katta aholiga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2025. – № 3, maxsus son. – B. 759–761.

6 Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. "Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari", 2025-yil



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>